

JAHON ADABIYOTIDA ILMIY FANTASTIKA VA UNING TURLARI

*Xolmirzayeva Fotima Jamshidovna**Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fantastik janr va uning turlari hamda turli asarlar janrlari bilan misol keltiriladi. Har bir fantastik janr o'ziga xos uslubiyati, obrazlari va syujet tuzilishi bilan ajralib turishi ko'rsatib beriladi. Maqola fantastik janrni chuqurroq tushunish va uning badiiy imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Fantastika, kosmos, kosmik kema, sayyora, vaqt mashinasi, sehr, robot, kiberfantastika.

Fantastik janr - bu inson tafakkurining eng keng ufqlarini ochib beruvchi adabiy yo'nalishdir. Unda real hayot hodisalari bilan bir qatorda inson tasavvuri yaratgan g'ayritabiiy, sirli va kelajakda bo'ladigan voqealar uyg'unlashadi. Fantastika o'quvchini oddiy hayotdan uzoqlashtiradi, biroq shu bilan birga uni chuqur fikrlashga, jamiyat va insoniyat kelajagini tasavvur qilishga undaydi.

Fantastik asarlar qadimdan mavjud bo'lib, xalq ertaklarida, afsonalarda va rivoyatlarda bu janrning ilk ko'rinishlari uchraydi. Biroq fantastika mustaqil janr sifatida XIX asrda shakllandi. Yul Vern, Herbert Uells, Ray Bredberi, Isaak Asimov kabi yozuvchilar bu yo'nalishning poydevorini yaratdilar. Ularning asarlarida texnika yutuqlari, ilmiy kashfiyotlar, kosmosga sayohatlar, vaqt mashinalari, sun'iy intellekt kabi g'oyalar ilgari surilgan.

Fantastik janrning turlaridan biri - ilmiy fantastika.

Ilmiy fantastika (Scientific fiction/Sci-fi). Bu turda voqealar ilm-fan yutuqlariga, texnologiyaga yoki kelajakdagi kashfiyotlarga asoslanadi. Bu janrning asosiy belgilari: Kosmos, robotlar, sun'iy intellekt, vaqt mashinasi kabi g'oyalardir. Buning har bir g'oyasi haqida qisqacha tanishib chiqsak:

Kiberfantastika (Cyberpunk) - bu texnologiya va jamiyatning qorong'u tomoni, kibermakon, virtual haqiqatlar haqida hikoya qiladi. Bunga William Gibsonning "Neuromancer" (1984) va Isaac Azimovning "I, robot" (1950) asari misol bo'lishi mumkin.

Kosmik fantastika (Space opera / Space fiction).

Bu tur ilmiy fantastikaning ichki turi bo'lib, asosan kosmosda bo'ladigan sarguzashtlar haqida hikoya yuritadi. Bu janrning asosiy belgilari: Yulduzlararo urushlar, boshqa sayyoralardagi hayot, kosmik kemalar haqidadir. Bunda Arthur C. Clarke tomonidan yozilgan "2001: A space Odyssey" (1968), va fantastik janrga ulkan hissa qo'shgan yozuvchi Isaak Azimovning "Foundation" (1951-1993) asari misol bo'lay oladi.

Vaqt fantastikasi (Time travel fiction)

Bu turda vaqt bo'ylab sayohat, o'tgan yoki kelajakdagi davrlarga borish g'oyasi markazda bo'ladi. Bu janr g'oyalari vaqt paradoxiga qarab turli xil bo'ladi. Hali vaqt bo'ylab sayohat qilish iloji bo'lganligi tufayli hech kim o'tmishga sayohat qanday alomatlar olib kelishini bilmaydi. Shu sababli olimlar paradoxlar nazariyasini kiritgan. Bobo paradoksida o'tmish o'zgarsa kelajak ham o'zgaradi deb ifodalansa, qolgan paradokslar o'tmishni o'zgartirsa kelajak o'zgarmaydi, aksincha yangi parallel olam ochilib alomati shu yerda davom etadi deydi yoki o'tmishni o'zgartirish imkonsiz degan fikrga asoslanadi. [2]

H.G Wellsning "The time machine" (1895) va Octavianing "Kindred" (1979) asari bunga yaqqol misoldir.

Mistika fantastika

Adabiyot va kinoda mistika insonni o'rab turgan, ammo aql bilan tushuntirib bo'lmaydigan sirli kuchlarni o'rganadi. Bu janrda voqealar real hayot bilan g'ayritabiyy olam o'rtasida kechadi - ruhlar, tushlar, taqdir, o'limdan keyingi hayot yoki parallel dunyolar orqali inson ruhiyati ochiladi.

Mistika asarlari qoʻrquv uygʻotish uchun emas, balki hayrat, shubha va ruhiy titroq hissini yaratish uchun yoziladi. Unda muhit sokin, lekin sirli; voqealar sekin ochiladi, oʻquvchi yoki tomoshabinni oʻylashga, sezishga undaydi.

Mistikaning asosiy belgilari gʻayritabiiy hodisalar (ruhlar, jinlar, moʻjizalar); tushunib boʻlmaydigan sirlar yoki ishoralar; falsafiy yoki diniy mazmun; inson ongining ichki dunyosini ochish kiradi.

Portal fantastika - bu fantastika janrining turi boʻlib, unda bosh qahramon real dunyodan sehrli yoki parallel dunyoga maxsus “eshik” (portal) orqali oʻtadi.

Bu oʻtish orqali u butunlay yangi muhit, qonun-qoidalar va mavjudotlar bilan toʻqnashadi

. Portal mavjudligi - qahramon boshqa olamga oʻtish uchun teshik, koʻzgu, eshik, sehrli joy yoki oʻyin kabi vositadan foydalanadi.

Bu janrda Ikki olam kontrasti - real dunyo va sehrli dunyo oʻrtasidagi farq kuchli aks ettiriladi

“Alice in Wonderland” - Alisa quyon teshigidan moʻjizalar olamiga tushadi.

“The Chronicles of Narnia” - bolalar shkaf orqali sehrli dunyoga oʻtadi.

“Coraline” – qizcha devordagi yashirin eshik orqali qorongʻi parallel dunyoga oʻtadi.

“The Wizard of Oz” – Doroti tornado orqali sehrli oʻlkaga uchib ketadi.

"Jumanji" asari

Postapokaliptik fantastika

“Post” - “keyin”, “apokalipsis” - “falokat” degani. Yaʼni katta ofatdan keyingi dunyo haqida hikoya qilinadi.

Asosiy belgilar:

Insoniyat halokatdan omon qolgan bir qismi bilan yangi hayot boshlashi boʻlib, bu holatga sabab: yadroviy urush, virus, iqlim oʻzgarishi, asteroid, texnologik isyon va hokazo.

Asarlarda hayot uchun kurash, tabiiy yashash, sivilizatsiya yoʻqolishi koʻrsatiladi.

Bu janrga ko'rlik', "metro2033", "walking dead", "I am legend" kabi jahon adabiyoti asarlari misol bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, fantastik janr inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlarini va erkinligini yaqqol namoyon etadi. Bu janr bizni kundalik hayotning cheklovlaridan chiqarib, mutlaqo yangi olamlar, g'oyalar va hodisalar bilan tanishtiradi. Fantastika orqali inson "agar shunday bo'lsa-chi?" degan savolga javob izlab, mavjud dunyodan tashqaridagi ehtimollarni o'rganadi, bu esa tafakkurning chegarasizligini va ijodiy kuchini ko'rsatadi. Shu bilan birga, fantastik asarlar insoniyatning eng chuqur his-tuyg'ularini, orzularini, qo'rquv va umidlarini badiiy shaklda aks ettiradi. U nafaqat o'quvchini o'ylashga undaydi, balki ma'naviy va ruhiy tajriba beradi, yangi qarashlar va qadriyatlarni ochib beradi. Fantastika - bu oddiy ertaklar yoki hikoyalardan ko'ra kengroq va murakkabroq oyna bo'lib, insoniyatning ichki dunyosi, axloqiy dilemmasi, jamiyat va kelajak haqidagi qarashlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois fantastika faqat qiziqarli o'qish yoki ko'rish vositasi emas, balki inson tafakkurining cheksizligini, ijodiy fikrning qudratini va ruhiy o'sishni namoyon etuvchi badiiy va falsafiy platformadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Friend, S. "Science Fiction as a Genre." The Journal of Aesthetics and Art Criticism, 79(1).
2. Mikkonen, S. Travelling Across Space, Time and Universes: Towards a Taxonomy of Portals in Speculative Fiction. Master's Thesis, Tampere University, November 2020.
3. Howe, A.D. A Phenomenological Exploration of Objects in Time Travel Short Fiction. Master's Thesis, Bridgewater (2015).
4. Wilkins, R. "The Impossibilities and Absurdities of Time Travel in ..." Entremundos.
5. "Science Fiction | Definition, Books, Movies, Authors, Examples, & Facts." Encyclopaedia Britannica.

6. "The Genre of Science Fiction: Predicting the Future." ARUCA D Journal.
7. "Science Fiction Genres and their Reflection of Societal Concerns and Aspirations." ResearchGate Publication